




O‘ZBEKISTON VA XITOIY O‘RTASIDAGI KO‘P QIRRALI HAMKORLIKNI KENGAYTIRISHNING AMALIY JIHATLARI KO‘RIB CHIQILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashqi siyosat idoralari rahbarlari strategik muloqotining navbatdagi yig‘ilishida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Xitoy Xalq Respublikasi Kommunistik partiyasi Markaziy qo‘mitasi Siyosiy byurosi a‘zosi, Tashqi ishlar bo‘yicha komissiya devoni rahbari, tashqi ishlar vaziri Van I boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi barcha sharoitlarda har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash hamda ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirishning amaliy jihatlari ko‘rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida Xitoy tashqi ishlar vaziri mamlakatimiz yetakchisiga Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szipinning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi. Davlat rahbarlarining siyosiy irodasi va birgalikdagi sa‘y-harakatlari tufayli ikki tomonlama munosabatlar misli ko‘rilmagan

yuksak darajaga ko‘tarilgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘tgan yili tovar ayirboshlash hajmi 14 milliard dollarga yetdi, qo‘shma korxonalar soni qariyb 5 mingtani tashkil qilmoqda, yil boshidan buyon Xitoydan salkam 15 milliard dollarlik investitsiyalar o‘zlashtirildi.

Texnologik sheriklik loyihalarining portfeli 90 milliard dollarga yaqinlashdi.

Yuqori texnologiyalar, “yashil” va atom energetikasi, sun‘iy intellekt, transport, infratuzilma, qishloq xo‘jaligi, geologiya, kimyo va boshqa yo‘nalishlardagi hamkorlikni ilgari surishga alohida e‘tibor qaratildi.

Barcha darajalarda aloqalar faollashdi, ikki mamlakat hududlari samarali hamkorlik qilmoqda, ta‘lim va madaniy-gumanitar sohada mazmunli almashinuvlar davom etmoqda.

O‘zbekiston yetakchisi navbatdagi oliy darajadagi tadbirlarga puxta tayyorgarlik ko‘rish hamda ikki tomonlama hamkorlikni yangi amaliy mazmun bilan boyitish zarurligini ta‘kidladi.

“Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘lini qurish loyihasini faol amalga oshirish va uni boshqa transport yo‘laklari bilan bog‘lash muhimligi qayd etildi.

Afg‘onistonni ijtimoiy-iqtisodiy tiklash va xavfsizlik masalalarida sa‘y-harakatlarni muvofiqlashtirishga alohida e‘tibor qaratildi. Ko‘p tomonlama formatlarda yaqin siyosiy muloqot hamda hamkorlikni davom ettirish, oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasidagi aloqalarni qo‘llab-quvvatlash hamda kambag‘allikka qarshi kurashish, turizm va boshqa sohalarda qo‘shma loyihalarni ilgari surish zarurligi ta‘kidlandi.

Shu yilning noyabr oyi oxirida O‘zbekistonda bo‘lajak Xitoy madaniyati kunlarining muvaffaqiyatli o‘tkazilishiga ishonch bildirildi.

Shuningdek, xalqaro va mintaqaviy kun tartibidagi masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘ZA



Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

Islohotlarimiz samarasini har bir inson o‘z hayotida his etishi uchun qabul qilinayotgan hujjatlar ijrosini o‘z vaqtida va samarali ta‘minlash lozim.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti



ISLOHOTLAR ISTIQBOLI IJRO INTIZOMIGA BOG‘LIQ

O‘zbekiston taraqqiyotning yangi davriga qadam qo‘ygan ayni pallada o‘zgarishlar kirib bormagan biror soha yoki tarmoq deyarli qolmadi. Xalqimizning farovon va sog‘lom yashashi, mamlakatimizning jahonda o‘z obro‘-e‘tiboriga ega bo‘lishi, odamlarning hayotdan roziligiga erishish, zamon talablariga mos bilimli, ma‘naviy-madaniy jihatdan yuksak avlodni tarbiyalash, xullas, insonning tug‘ilib kamolga yetishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur jarayonda eng muhim o‘zgarishlardan biri davlat va xalq birligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilgani, boshqaruv organlarining aholiga yaqinlashgani, qisqacha

aytganda, Prezidentimiz ilgari surgan “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan o‘ta hayotiy prinsipning amalga ko‘chgani bilan tavsiflanadi.

► Davomi 3-betda

MINTAQAVIY BIRDAMLIK: TARIXIY TARAQQIYOT SARI MUHIM QADAM

Nuqtayi nazar



Poytaxtimizda Prezidentimiz raisligida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining muvaffaqiyatli o‘tkazilgan yettinchi Maslahat uchrashuvi mintaqamizning strategik mustaqilligi, iqtisodiy barqarorligi va ekologik xavfsizligi yo‘lidagi muhim bosqichni belgilab berdi.

Bu sammit shunchaki muzokaralar platformasi bo‘libgina qolmay, mintqa davlatlarining o‘z taqdirini o‘z qo‘liga olish, umumiy manfaatlar atrofida birlashishga bo‘lgan qat‘iy siyosiy irodasining ham yaqqol namoyishi bo‘ldi. Bugungi kunda Markaziy Osiyo nafaqat jadal taraqqiyot makoni, balki dunyo geosiyosatining asosiy subyekti sifatida shakllanmoqda, bunda Prezidentimizning pragmatik diplomatiyasi muhim o‘rin tutmoqda.

► Davomi 2-betda

INTELLEKTUAL MULK, ARXIV ISHI VA YURIDIK TA‘LIM SOHALARIDA SAMARADORLIK OSHIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 21-noyabr kuni intellektual mulk, arxiv ishi va yuridik ta‘lim sohalarini isloh qilishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Keyingi yillarda intellektual mulk sohasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Sohada 51 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilinib, O‘zbekiston 8 ta xalqaro shartnomaga qo‘shildi. Intellektual mulk himoyasi kuchaytirilib, unga oid huquqbuzarliklar uchun ma‘muriy jazo qat‘iylashtirildi, jinoiy javobgarlik belgilandi. Bojxonada “ex officio” tartib-taomili kiritilib, kontrafakt tovarlarni yo‘q qilish tartibi joriy etildi, har yili “Kontrafaktsiz oy” oyiligi o‘tkazilmoqda.

Intellektual mulk obyektlarining soni 102 mingtadan oshdi, xorijda mahalliy va O‘zbekistonga kirgan xorijiy brendlar muhofazasi kengaytirildi, Samarqand noni, Chust pichog‘lari, Marg‘ilon adasi kabi 23 ta geografik ko‘rsatkich ro‘yxatdan o‘tkazildi.

Bu ishlar natijasida mamlakatimiz Global innovatsiyalar indeksida 14 pog‘ona yuqorilab, 79-o‘ringa ko‘tarildi.

Taqdimotda sohani yanada rivojlantirish rejalari ko‘rib chiqildi. Jumladan, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikda Intellektual mulk sohasini rivojlantirish milliy strategiyasini ishlab chiqish ko‘zda tutilgan.

Rejaga ko‘ra, patent va guvohnomalarga o‘zgartirish kiritish jarayonlari soddalashtiriladi, 5 ta kompozit va 4 ta proaktiv xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek, intellektual mulkdan foydalanish holati Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingida inobatga olinadigan tartib joriy qilinadi.

Barcha oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida patentlash, ishlab chiqarishga kiritish hamda tijoratlashtirishga ko‘maklashish markazlarini ochish, dastlab Milliy universitetda, keyinchalik yana 4 ta oliygohda “Intellektual mulk obyektlari menejmenti” yo‘nalishini tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Ijodkorlar va mutaxassislarni rag‘batlantirish maqsadida har yili 5 ta nominatsiya bo‘yicha “Eng yaxshi intellektual mulk obyektlari” tanlovini o‘tkazish taklif qilindi. “Intellektual mulk sohasini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun” maxsus ko‘krak nishoni ta‘sis etilib, 26-aprel — Butunjahon intellektual mulk kunida topshirib borilishi belgilandi.

Milliy geografik ko‘rsatkichlar tizimini mustahkamlash muhimligi qayd etildi. Yetimishga yaqin geografik ko‘rsatkichni ro‘yxatdan o‘tkazish, Lissabon tizimiga a‘zo bo‘lish orqali milliy mahsulotlar qiymatini va eksport salohiyatini oshirish muhimligi ta‘kidlandi.

Arxiv ishini modernizatsiya qilish masalalari muhokama qilinarkan, bugungi kunda yurtimiz arxivlarida 16 millionta hujjat to‘plami, shu jumladan, 1,3 millionta alohida qimmatli va noyob hujjatlar saqlanayotgani

qayd etildi. Buxoro amiri qushbegisi mahkamasi va Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari UNESCOning “Jahon xotirasi” ro‘yxatiga kiritilgan.

Shu bilan birga, hujjatlarni raqamlashtirish sur‘ati yiliga atigi 2 foizni tashkil qilmoqda. 2030-yilga qadar arxiv fondining raqamlashuv darajasini 60 foizga yetkazish, alohida qimmatli va noyob hujjatlarni to‘liq raqamlashtirish zarurligi qayd etildi.

Buning uchun sohadagi axborot tizimlarini Yagona milliy arxiv axborot tizimiga birlashtirish, hujjatlarni radiochastotali identifikatsiya (RFID) texnologiyasi orqali hisobga olish va onlayn kuzatish tizimini joriy etish, hujjatlarni tasniflash va tanish jarayoniga sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish rejalashtirilgan. Tuman (shahar) arxivlarining vazifalari hududiy arxiv boshqarmalariga o‘tkaziladi.

“Shajara” axborot tizimini yo‘lga qo‘yish taklifi bildirildi. Yangi xizmat foydalanuvchilarga o‘z shajarasini yaratish, tug‘ilish, nikoh va o‘lim haqidagi ma‘lumotlarni, genetik ma‘lumotlar asosida uzoq qarindoshlarini izlash imkonini yaratadi.

Yuridik ta‘lim va fanni yanada isloh qilish masalalari ko‘rib chiqildi.

Toshkent davlat yuridik universitetida klinik va dual ta‘limni joriy qilish rejalashtirilgan. Talabalarning amaliyot darslari ulushi 50 foizga yetkaziladi, fuqarolik, jinoyat va biznes huquqi yo‘nalishlarida yuridik klinikalar tashkil etiladi. Zamonaviy huquq talabalaridan kelib chiqib, “Raqamli huquq” va “Korporativ huquq va boshqaruv” kabi yangi ta‘lim yo‘nalishlari ochiladi.

Shu bilan birga, “ta‘lim — tadqiqot — amaliyot” zanjiri asosida fakultetdarning tashkiliy tuzilmasini yangilash va kafedralarni bosqichma-bosqich sho‘balarga aylantirish, universitetning professorlar kengashini tashkil etish taklif etildi.

Taqdimotda qonunchilikdagi bo‘shliqlarni bartaraf etish va tartibga solish yukini kamaytirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Bu ishlar doirasida ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotgan 800 ga yaqin me‘yoriy hujjati bekor qilish, 77 ta hujjatni qayta ko‘rib chiqish, tadbirkorlar uchun 15 dan ziyod ortiqcha talablarni qisqartirish orqali biznes yuritish sharoitlarini yengillashtirish rejalashtirilgan. Qonunlar samaradorligini baholash orqali kollizion norma va huquqiy bo‘shliqlar bartaraf etib boriladi.

Prezidentimiz taqdim etilgan yangilanishlarni tizimli joriy etib, muhokama qilingan sohalarda samaradorlikni, aholi va tadbirkorlar uchun qulayliklarni yanada oshirish zarurligini ta‘kidladi.

O‘ZA

unesco

Moziy va

KELAJAK TUTASHGAN MANZIL

Samarqand moziy va kelajakning yaxlit, uyg‘un qiyofasi aks etgan shahar. So‘nggi kunlarda muazzam kent UNESCOning 43-Bosh konferensiyasi minbariga o‘yladi.

Bu nufuzli anjuman odatda global miqyosda ta‘lim, fan, madaniyat va axborot siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab keladi. Shuning uchun u o‘tkaziladigan shahar sifatida Samarqandning tanlanishi yirik xalqaro

tashkilotning aydiniy protokollari qarori darajasidan ancha yuqori turadigan, mazmunan chuqur ramziy ma‘noga ega.

► Davomi 5-betda

IXTIROCHI O‘QUVCHILAR

QISHLOQ XO‘JALIGIGA NAVBATDAGI QURILMANI TUHFA ETYAPTI

MEHR-OQIBATNING CHIN TARG‘IBOTCHISI EDI

5

6

O‘zbekiston Prezidentining “Yangi O‘zbekiston” gazetasida chop etilgan “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” maqolasini mintaqada keyingi yillarda ro‘y bergan keskin o‘zgarishlar, xalqlarimiz hayotini yaxshilash yo‘lidagi yangilanishlar ko‘zgusi, bu borada galdagi ustuvor vazifalarning keng tahlili deyish mumkin. Zero, maqolada qayd etilganidek, “Bugun biz kuchli, barqaror va farovon mintqa — yangi Markaziy Osiyoning mustahkam poydevorini yaratmoqdami?”.

Pirovardida mintqa dunyo ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy xaritasida keyingi yillarda shiddat bilan rivojlanayotgan hudud sifatida e’tirof etilmoqda.



Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tizimli o‘zgarishlar va global xatarlar Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlarini o‘zaro yaqin hamkorlikka undayotgan muhim omillardan biriga aylandi. Shu bilan birga, mazkur xatarlar Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy va strategik manfaatlarini uyg‘unlashtirish, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish zaruratini yanada kuchaytirdi. Mintqa davlatlari o‘rtasidagi bu yaqinlashuv nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, balki mintaqaviy xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik va innovatsion rivojlanishni rag‘batlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan, jahon iqtisodiyotidagi global xatarlar Markaziy Osiyoning strategik birlikka intilishini kuchaytirmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari mintaqaning bugungi taraqqiyoti va kelajagiga daxldor strategik masalalar bo‘yicha hamkorlikda umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni amalda qo‘llashning yangicha mexanizmi sifatida ko‘rinmoqda.

Prezidentimiz bu borada Toshkent sammiti barqaror, o‘zaro bog‘liq va farovon Markaziy Osiyoni birgalikda

barpo etishda muhim bosqichni boshlab berishiga ishonch bildirgandiki, bu amalda tasdig‘ini topdi. Zero, bu uchrashuv mamlakatlarimizning mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishda tub burilish davrini boshlash bilan birga mintaqaviy integratsiyaning yangi bosqichiga turtki berishi shubhasiz.

Bugungi kunga kelib, Markaziy Osiyo barqarorlik va buniyodkorlik hududiga aylanib ulgirdi, bunda mintaqaviy hamkorlik tizimli va mintazam muloqot orqali, asosiysi, tashqi vositachilarsiz dunyoga o‘z qiyofasini ko‘rsata oldi. Davlatimiz rahbari buni hamkorlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, ochiqlik va umumiy manfaatlarni anglashga asoslangan yangicha siyosiy tafakkur ramzi deb baholadi.

Mintaqaviy hamkorlik borasida boshlangan yangi bosqichning eng muhim yutuqlaridan biri chegara masalalari uzil-kesil hal etilganidir. Jumladan, 2025-yil mart oyida O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasida uch davlatning chegaralari tutashgan nuqta to‘g‘risidagi shartnoma va Xo‘jand deklaratsiyasi imzolanganii olamshumul voqeadir. Zero, o‘nlab yillar davomida keskinlik manbai bo‘lib kelgan masalaga nuqta qo‘yilgani millionlab insonlarga qulaylik yaratmoqda. Qolaversa, bu kelishuv alohida

Mintaqamizda qo‘shnichilik — xavf emas, imkoniyat, bir tarafning muvaffaqiyati — barchaning yutug‘i degan yagona mintaqaviy makonga mansublik hissi shakllanayotgani mintaqaviy jipslashuvni yanada mustahkamlash, barqaror va farovon yangi Markaziy Osiyoni barpo etishga zamin yaratmoqda.

Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyoni barqaror rivojlantrishda quyidagi strategik yo‘nalishlarni ilgari surmoqda.

Birinchidan, mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishni davom ettirish — mavjud mexanizmlarni mustahkamlab, mintaqaviy institutlar hamkorligini tizimli rivojlantrish.

Ikkinchidan, xavfsizlik sohasida tahdid va xatarlarga qarshi kurashish bo‘yicha umumiy salohiyatni shakllantrish. Xavfsizlik kengashlari kotiblari, maxsus xizmatlar, mudofaa va huquqni muhofaza qilish idoralari rahbarlarining mintazam uchrashuvlarini davom ettirish. “Xavfsizlikning bo‘linmasligi” prinsipi asosida mintaqaviy hamkorlik amaldagi xalqaro mexanizmlar bilan uzviy bog‘liqligi bo‘yicha tizimli ishlar olib borish.

“

Uchinchidan, iqtisodiy sohada ichki mintaqaviy savdoni rivojlantrish, chegaralardan o‘tish tartib-taomillarini soddalashtirish va o‘zaro investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish. Sanoat kooperatsiyasini faollashtirish, mintaqaviy va hududlararo yetkazib berish zanjirlarini shakllantrish, chegaraoldi savdo zonalarini rivojlantrish, transport va iqtisodiy yo‘laklar tarmog‘ini kengaytirish, transport, energetika, qishloq xo‘jaligi va raqamli iqtisodiyot sohaslarida qo‘shma loyihalarni ilgari surish.

To‘rtinchidan, gumanitar hamkorlikni ustuvor davom ettirish. Inson kapitalini rivojlantrish, ta’lim, ilm-fan va madaniy aloqalarni mustahkamlash. Umumiy axborot makonini yaratish, ta’lim, sog‘liqni saqlash sifatini oshirish, umuman, ijtimoiy soha, jumladan, turizm va yoshlarga oid qo‘shma dasturlarni rivojlantrish.

Beshinchidan, Markaziy Osiyo mamlakatlarining tashqi siyosatda kelishilgan yondashuvlarini ishlab chiqish.

Mazkur tashabbuslar Markaziy Osiyo davlatlarining ichki resurs va salohiyatini birlashtirish orqali mintaqaning barqaror iqtisodiy o‘sishiga, xavfsizlik tizimi mustahkamlanishiga hamda tashqi hamkorlar bilan o‘zaro manfaatlil munosabatlarni yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz ilgari surgan strategik vazifalar nafaqat mintaqaviy barqarorlikni ta’minlash, balki Markaziy Osiyoni global rivojlanish jarayonlarining faol ishtirokchisiga aylantirishga zamin yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Jamila BOBONAZAROVA,
Oliy Majlis Senati a‘zosi

Boshlanishi 1-betda

Maslahat uchrashuvining asosiy strategik yutug‘i sifatida Ozarbayjon Respublikasining formatga to‘laonli a‘zo sifatida qo‘shilishini e’tirof etish joiz. Bu Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o‘rtasidagi tabiiy-tarixiy ko‘priknii tikladi. Mazkur kengayish nafaqat savdo-iqtisodiy aloqalarni kuchaytiradi, balki transc chegaraviy ekologik muammolar, jumladan, Kaspiy va Orol dengizlari muhofazasiga qarshi birgalikda kurashish uchun yangi imkoniyatlar tug‘diradi.

Prezidentimizning mintqa munosabatlarini Maslahat uchrashuvi shaklidan “Markaziy Osiyo hamjamiyati” deb nomlanuvchi institutsional formatga aylantirish taklifi Kotibiyat va Oqsqollar kengashini tashkil etish orqali bu hamkorlikka mustahkam siyosiy va huquqiy asos yaratadi.

“

Biz, deputatlar Prezidentimiz tashabbuslarining aksariyati aynan ekologik barqarorlik va resurslardan oqilona foydalanish kabi ustuvor yo‘nalishlarga qaratilganini alohida qadrlaymiz va buni mintaqaning kelajagi uchun hal qiluvchi omil deb bilamiz.

Binobarin, bugungi kunda Markaziy Osiyo iqlim o‘zgarishlari, havo ifloslanishi, cho‘llanish va suv taqchilligi kabi keskin muammolar bilan yuzma-yuz turgan bir paytda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan Markaziy Osiyoning “yashil” taraqqiyot konsepsiyasini tez fursatda qabul qilish zarurati iqtisodiy rivojlanish modelini tubdan o‘zgartirishga qaratilgan dasturiy talabdir.

Konsepsiya asosida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish va “yashil” investitsiyalarni rag‘batlantirish orqali iqtisodiyotning “uglerod izi”ni kamaytirish ko‘zda tutiladi. Aynan



Inson qadri uchun

Migratsiya siyosati har qanday davlat uchun muhim yo‘nalishlardan biridir. Uzoq yillar davomida mamlakatimizda bu soha nihoyatda og‘riqli edi. Minglab vatandoshlarimiz chet elga qonunlarni bilmay, hech qanday shartnoma tuzmay, eng oddiy kafolatlarsiz ketishga majbur edi.

Ularning haq-huquqlari har qadamda buzilar, ish haqi to‘lanmas, mashhaqqatli mehnat sharoiti, ochiq ekspluatatsiya va kamsitish holatlari ko‘p uchrardi. Ko‘plab xorijiy mamlakatlarda o‘zbeklar huquqlari bo‘shliqda qolib ketar, qayerga murojaat qilishni bilmas, yuridik yordamdan mahrum, ayrim hollarda insofsiz vositachilarning qo‘liga tushib qolardi.

Achinarlisi, mehnat muhojirlari o‘lmay davomida yerto‘lada yashagan, dam olmay ishlagan, hujjatlaridan ayrilgan, deportatsiya markazlariga tushgan. Oila a‘zolari esa yillar davomida ulardan xabar kutib yashashga majbur edi.

Umuman olganda, muammo ko‘lami keng edi. Bu og‘ir vaziyatni tubdan o‘zgartirish Prezidentimizning qat’iy siyosiy irodasi va 2017-yildan boshlangan izchil islohotlar tufayli amalga oshdi. Aynan shu o‘zgarishlar yillar davomida to‘planib kelgan muammolarni bartaraf etish, mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilish va butun tizimni yangi bosqichga ko‘tarish uchun burilish nuqtasi bo‘ldi.

Migratsiya sohasining me‘yoriy-huquqiy bazasi tubdan kuchaytirildi, tegishli qonunlar qabul qilindi, himoya mexanizmlari ishlab chiqildi. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning to‘liq va samarali tizimi shakllantrildi. Konsullik xizmati kengaytirildi, 24/7 rejimida ishlaydigan ishonch telefonlari ishga tushirildi. Sohada yangi raqamli xizmatlar joriy etildi. Elchixona va diplomatik vakolatxonalar faoliyati kuchaytirildi.

Bu borada alohida e’tibor xavf-xatarlarning oldini olishga qaratildi. Chet elga chiqishdan oldingi tayyovgarlik, malaka oshirish, qonuniy mehnatga yo‘naltirish mexanizmlari ishlab chiqildi. Shuningdek, xorijdagi hamyurtlarimiz bilan uchrashib, muammolari o‘rganildi. Ish beruvchilar bilan muzokaralar olib borilib, qonunbuzarliklar bo‘yicha chora ko‘rildi. Ushbu ishlar xorijiy idoralar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik mexanizmlarini mustahkamladi.

Bugun ishonch bilan aytish mumkin: O‘zbekistonning migratsiya siyosati tartibsizlik va beqarorlik yo‘lidani chiqdi. Endi bu yo‘nalishda tartib, qonuniylik, insoniy himoya va davlat mas’uliyati birinchi o‘ringa qo‘yildi. Xorijda ishlayotgan yurtdoshlarimiz va oila a‘zolarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida joriy qilingan imtiyozlar ko‘lami kengaydi. Chet elda ularning haq-huquqlarini kafolatlash, xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini yo‘lga qo‘yish borasida salmoqli ishlar qilindi. Pirovardida tizim bilan bog‘liq vaziyat tubdan o‘zgardi. Bu — fuqarolarning chet elda ishlashi uchun sharoit yaratish, ularning haq-huquqlarini himoya qilish, kafolatli mehnat bozori bilan ta’minlash, yurtimizga qaytib kelgandan keyingi hayotiga befarq bo‘lmasilik kabi sa’y-harakatlarda namoyon bo‘lmoqda. Yangicha yondashuvlar tufayli minglab yurtdoshlarimiz birinchi marta davlat ularni og‘ir sharoitda tashlab qo‘ymasligi, balki huquq va qadr-qimmatini himoyalash uchun amalda harakat qilayotganini his etdi.



Davlatimiz rahbariga 18-noyabr kuni tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish va migratsiya jarayonlarini xalqaro standartlar asosida yo‘lga qo‘yish masalalari yuzasidan axborot berildi. Qayd etilganidek, so‘nggi yillarda mamlakatimizda fuqarolarni mehnat qilish uchun chet elga

tartibli jo‘natish bo‘yicha bajarilayotgan tizimli ishlar tufayli mehnat bozori diversifikatsiya qilinmoqda. Fuqarolar asosan yuqori maoshli ish o‘rinlarida ishlash uchun xorijga ketmoqda. Natijada 2016-yilga nisbatan chet elda ishlayotgan fuqarolar soni kamaygan bo‘lsa-da, ular yuborgan mablag‘

3,8 milliard dollardan 2025-yilning o‘n oyi yakunida 15,8 milliard dollarga yetdi.

— Yig‘ilishda tashqi mehnat migratsiyasi sohasida joriy yilda qilingan ishlar hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan axborot berildi, — deydi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri Botir Zohidov. — Bugun xorij mehnat bozorida malakali mutaxassislarga ehtiyoj katta. Ayni paytda 140 ming mutaxassisga buyurtma mavjud. Ammo til va kasbiy malaka bo‘yicha talablarga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash borasida qilinadigan ishlar hali ko‘p. Eng muhimlaridan biri — chet elga ishlash uchun ketayotgan fuqarolarning malakasini tasdiqlash va baholash tizimini yo‘lga qo‘yish.

Darhaqiqat, xorijdami yoki yurtimizda fuqaroning kasb va malaka darajasi tasdiqlangan bo‘lsa, samaradorlikka yarasha daromad ham ortadi. Bu yo‘nalishda keyingi ikki oyda qator loyihalar ishga tushirildi. Xususan, Yevropa davlatlarida tun olinadigan kasbni tasdiqlash tizimi, ya’ni sertifikat va diplom berish pilot loyihalari boshlangan.

Yana bir yo‘nalish — fuqarolarni ishga joylashtirishda yuqori daromadli, munosib mehnat sharoitlari yaratilgan tashqi bozorlar imkoniyatini o‘rganish. Bu bo‘yicha ham zarur chora-tadbirlar belgilab olindi.

Bugun barcha sohada bo‘lgani kabi migratsiya tizimida ham raqamlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur tizimda xizmat ko‘rsatish jarayonini sun‘iy intellekt texnologiyalari yordamida takomillashtirish davr talabi.

Raqamli texnologiyalar vaziri Sherzod Shermatovning qayd etishicha, bugun tegishli barcha davlat tashkilotida yagona davlat migratsiya tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Xorijda mehnat qilayotgan har bir fuqaro haqidagi ma’lumotlar kiritilgan. “Xorijda ish” platformasida 25 turdagi xizmat taqdim etilmoqda.

Yig‘ilishda Prezidentimiz aholiga qulaylik yaratish maqsadida bu mobil ilovani yanada kuchaytirish masalasini qo‘ydi. Sun‘iy intellektni qo‘llagan holda xorijga

ishga borayotgan yoki u yerda ishlash turgan fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilish, ish o‘rinlarini aniqlash, qonunchilikdagi o‘zgarishlar borasida barcha ma’lumotni topish uchun qulaylik yaratiladi. Qisqasi, xorijda ishlayotgan yurtdoshlarimiz bu platforma orqali hamma savoliga javob olishi kerak.

Bundan tashqari, Uchtepa tumanida “Xorijga ishga tayyorlash markazi”, Termiz shahrida “Yagona migratsiya xizmatlari” markazi tashkil etiladi. Yashnobod tumanida esa xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlikda nemis va yapon tillariga o‘qitish maktablari ochiladi. Migratsiya agentligida fuqarolarga tunu kun tezkor yordam beradigan situatsion markaz tashkil etiladi.

— Davlatimiz rahbari har doim chet eldagi O‘zbekiston fuqarosi ortida vatani turganini his qilsin deya ta’kidlaydi, — deydi Migratsiya agentligi direktori Behzod Musayev. — Bizda bu sohaga juda qulay yondashuv joriy etilgan. Birinchidan, ketish oldidan tayyorgarlik uchun zarur sharoit yaratiladi. Qolaversa, yo‘l haqi bilan bog‘liq hamda ishchi viza xarajati to‘lab berilmoqda. Til o‘rgatish kurslari, sertifikatlar to‘lovi ham davlatimiz hisobidan qoplanmoqda.

Shuningdek, fuqaro chet elga borganidan keyin ham davlat uni e’tiborsiz qoldirmaydi. Ya’ni sog‘lig‘i bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelsa, to‘lovlarini to‘lash, huquqiy yordam ko‘rsatishda advokatlar birlashtirish hamda boshqa masalalarda ko‘mak berilmoqda. Zarur hollarda mehmonxona xarajati, vatanga qaytish uchun chipta olishda yordam berilmoqda.

Bugun noqonuniy migratsiya va konsalting xizmatlari ko‘rsatishda fribgarlik holatlari ham ko‘payib bormoqda. Bularning oldini olish uchun mehnat migrantlarining huquqiy savdonligini oshirish maqsadida xalqaro aeroportlarda interaktiv migratsiya infokiosklarini o‘rnatish, litsenziyasiz faoliyat yuritgan konsalting tashkilotlari uchun jarima miqdorini oshirish kabi masalalar yuzasidan alohida takliflar bildirildi.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

ISLOHOTLAR ISTIQBOLI IJRO INTIZOMIGA BOG‘LIQ

Mas’uliyat va natija

Ushbu hujjatlar talablari asosida madaniyat sohasida mas’ul shaxslarning javobgarligi va mas’uliyatini kuchaytirish, qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etish va monitoring qilishning ta’sirchan tizimini yaratish borasida kompleks chora-tadbirlar belgilangan. Bu jarayonda ijro intizomi, shaxsiy mas’uliyat va tashabbuskorlik asosiy tamoyillar qilib olindi. Ish samaradorligini oshirishda “Ijro.gov.uz” elektron tizimi qo‘l keltmoqda.

Natijalar ham harakatga yarasha. Joriy yilning 10 oyi davomida vazirlik tomonidan Prezidentimizning 30 ta farmoni, 86 ta qarori, 2 ta farmoyishi va 46 ta bayoni doirasida berilgan jami 1367 ta topshiriq ijrosi ta’minlandi.

Shuningdek, joriy yilning noyabr va dekabr oylarida Madaniyat vazirligi tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining jami 363 ta topshirig‘i mavjud. Ularning 255 tasi (70 foizi)da vazirlik asosiy ijrochi etib belgilangan. Albatta, bu topshiriqlar soni yil yakuniga qadar bundan ham ko‘payadi.

Yil davomida topshiriqlarning ijro holati bo‘yicha vazir va vazir o‘rinbosarlari rahbarligida 60 dan ortiq muhokama bo‘lib o‘tdi.

Qonunchilik hujjatlari, qo‘yilgan vazifalar mohiyati va ahamiyatini quyil tuzilmalardan tortib, xodimlarga tekzor yetkazish, nazorat bandlari va topshiriqlarni bajarishda tashkilot rahbarlarining shaxsiy javobgarligi ta’minlangan. Yuqori va quyi tizimlar o‘rtasida tekzor ichki axborot almashinuvi jarayoni to‘liq elektron formatga o‘tkazilgan. Bu esa sohaga doir qonunchilik hujjatlari ijrosini tashkil etish va monitoring qilishda samara bermoqda.

Qabul qilinayotgan hujjatlar va topshiriqlar ijrosini nazorat qilishda markaziy apparatlarda, tarmoq va hududiy boshqaruv organlarining o‘rta va quyi bo‘g‘inlarida ishlarining real holatini tanqidiy o‘rganishga, erishilgan pirovard natijalarga, kamchiliklar va muammolarning sabablariga, foydalanilmagan zaxiralarga, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari va hokimliklarning tashkil etiladigan elektron ma’lumotlar bazasi asosida “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimida o‘z vaqtida hisobot berilishiga alohida e’tibor qaratilyapti.

Davlatimiz rahbari soha bo‘yicha o‘tkazayotgan yig‘ilishlarda, qabul qilayotgan hujjatlarda bugun madaniyat va san’at jabhasini yanada rivojlantirish hamda ommalashtirish, muammolarni tizimli hal etish, yoshlarning badiiy-estetik didini tarbiyalash, ma’naviy saviyasini oshirish, ularning qalbida ijodkorlik, bunyodkorlik, ezigulik tuyg‘ularini kamol toptirishga doir qator chora-tadbirlarni belgilab beryapti.

Ularining ijrosini o‘z vaqtida va bekam-u ko‘st ta’minlash orqaligina ezigulik ziyosini, azaliy qadriyatlar va zamonaviylik nafasini



Bundan tashqari, Prezidentimizning 2024-yil 13-martdagi “Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo‘jalik birlashmalari faoliyati samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari va o‘rinbosarlarining faoliyati samaradorligini baholashning yangi tizimi, ya’ni eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) joriy etildi.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-apreldagi 282-qaroriga muvofiq madaniyat vaziri va o‘rinbosarlari faoliyatining 2025-yil uchun eng muhim samaradorlik ko‘rsatkich (KPI)lari, “yo‘l xaritasi” hamda chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan.

Joriy yil uchinchi chorak uchun belgilangan 48 ta ko‘rsatkich “samaradorlik.uz” elektron platformasida vazir va o‘rinbosarlari kesimida taqsimlangan bo‘lib, ushbu reja amalda 100 foiz bajarildi.

Jamoatchilik nazorati — qilinayotgan ishlar sifati va natijadorligini ochiq muhokamadan o‘tkazadigan qudratli kuch. Ayni jihat hisobga olinib, ommaviy axborot vositalarida tegishli qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning mohiyati, ahamiyati hamda ularni amalga oshirish yuzasidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar keng jamoatchilikka tushuntirilmoqda. Tizimdagi mutasaddilar OAV hamda ijtimoiy tarmoqlarda bu borada fikr-mulohazalarini bildirib, jamoat tashkilotlari va mahallalarda uchrashuvlar o‘tkazayapti. Zotan, xalq bahosi — oliy mezon!

Ezigulik ziyosi keng yoyilmoqda

Madaniy-ma’rifiy va san’at sohasidagi ishlar yurtdoshlarimizning ruhiy, madaniy, ma’naviy saviyasini yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli. Demak, Prezidentimizning yangi O‘zbekistonni barpo etish va mamlakatimizda Uchinchi Renessans

mamlakatimizning eng chekka qishlog‘u ovullarigacha chuqur yetkazish mumkin.

Shuni hisobga olgan holda, Madaniyat vazirligi jamoasi markazlardan olis hududlarda ham islohotlar samaradorligini ta’minlash, yurtdoshlarimizga madaniy dam olish xizmatlari ko‘rsatish darajasini oshirishga jiddiy e’tibor qaratmoqda. Respublikaning barcha hududida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy hamda konsert-tomosh tadbirlari tizimli ravishda o‘tkazilyapti. Jumladan, o‘tgan yili yurtimiz bo‘ylab 7255 ta konsert-tomosh tadbiri uyushtirilib, ularga 10 milliondan ortiq kishi qamrab olindi.

“Lazgi”, “Boysun bahori”, Xalqaro zardo‘zlik va zargarlik, “Dunyo sadolari”, “Sharq taronalari” va Xalqaro maqom san’ati anjumani kabi xalqaro festivallar, anjuman va forumlar tashkil qilindi. Mamlakatimizning barcha hududida “Yangi hayot uchun, yangi O‘zbekiston uchun!” shiori ostida “Mahallada duv-duv gap”, “Vatan mazmumasi”, “Ma’naviyat festivali” kabi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazildi.

Sohada iste’dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo‘llab-quvvatlash, ta’lim muassasalarini milliy cholg‘ular, musiqa darsliklari, notalar to‘plami va o‘quv-metodik adabiyotlar bilan ta’minlashning yaxlit tizimi yaratildi. Xususan, “Beshta muhim tashabbus” loyihasi doirasida bolalar musiqa va san’at maktablari zamon andozalari asosida ta’minlanmoqda, ularga musiqa uskunalari yetkazib berilyapti. Ta’lim muassasalarida turli to‘garaklar ochilyapti. Bularning barchasi asrlar osha ajdoddan avlodlarga o‘tib kelayotgan noyob san’at namunalarini yanada chuqur o‘rganish, keng tarqib etish, ayniqsa, yoshlar qalbida ularga hurmat va sadoqat ruhini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Muqaddas burch

Barcha jabhadagi shiddatli islohotlar madaniyat sohasi vakillari oldiga ham jiddiy talablarni qo‘ymoqda. Ularga to‘la javob berish uchun bugun o‘zimizni ham, ish uslubimizni ham takomillashtirib borishimiz shart.

Xalqimizning hurmati va ishonchiga munosib bo‘lish, davlatimiz rahbari oldimizga qo‘yayotgan zalvarli, o‘z navbatida, mashaqqatli vazifani bajarish barchamizdan yuksak mas’uliyat, hamjihatlik, bir yoqadan bosh chiqarib, bir mustb bo‘lib mehnat qilishni talab etadi.

Biz endi katta marralarni ko‘zlamasak, maqsadlarimiz chegaralarini yanada kengroq olmasak, sohada rivojlanishni ta’minlash qiyin.

Sohaga doir hujjatning ijrosiga kirishar ekanmiz, avvalo, o‘zimizning mazmun-mohiyatini, hayotiy ahamiyatini chuqur anglashimiz zarur.

Shu ma’noda, madaniyat sohasidagi islohotlarni yangi bosqichga ko‘tarish uchun tizimida ishlayotgan har bir xodim ijro intizomiga qat’iy rioya etishni, o‘z ustida ishlashni, bilim va salohiyatini, ma’naviyatini mustazam boyitib borishni kundalik vazifasiga aylantirishi kerak.

Ijro intizomi — islohotlar istiqboli demak. Shunday ekan, zimmamizga yuklanayotgan har bir vazifani sidqidildan, yuksak did, bilim va mahorat bilan, eng muhimi, o‘z vaqtida ado etishimiz el-yurtimiz oldidagi muqaddas burchimizdir. Vatanimizni jahonning eng rivojlangan davlatlari qatoriga ko‘rish, tinch va farovon hayotda umrguzaronlik qilish, xalqimizning azaliy orzu-umidlariga yetishi bizing ana shu burchimizni qay darajada uddalayotganimizga ham bog‘liq.



Munosabat



QO‘SHNI MAMLAKATLAR
BILAN O‘ZARO HAMJIHATLIK
YURTIMIZ IQTISODIYOTINI
YANGI MARRALARGA OLIB
CHIQAADI. ENG MUHIMI, GLOBAL
MUAMMOLARNING YECHIMI
BIRGALIKDA TOPILADI.

QO‘SHNICHILIK – MING YILCHILIK

Shodiyor XO‘JANAZAROV,
mehnat faxriysi

Yoshligimizda uyda
biror tansiq taom
pishirilsa, otam,
albatta, qo‘shniga
uzatishimizni
ta’kidlard. Taomni
olib borganimizda
qo‘shnilar ham
quruq qaytarmasdi.
Shu sabab bu ishni
bajarishga doim
tayyor edik. Xuddi

shu jarayon qo‘shnining uyida ham takrorlanardi.
Bolalarcha fikrlab: “Nega bir-birimizga yegulik
uzatishimiz kerak ekan?” deb o‘ylardim. Ba’zida
erinchoqlik tufayli bundan bir oz ranjiganim
ham rost. Shunda kattalar tanbeh berib, baribir
qo‘shnichilik rishmalarini to‘xtatmagan. Ulg‘aygach,
bildim — bu azaliy qadriyat, o‘zaro hurmat, hech
bir kitobda yozilmagan odamiylikning bir ko‘rinishi
ekan.

Toshkent shahrida Prezidentimiz raisligida o‘tkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi ham o‘ziga xos qo‘shnichilik rishmalarini bog‘lovchi muhim voqea bo‘ldi. Uchrashuvni diqqat bilan kuzatib bordik. Juda katta tarixiy yangiliklarga boy o‘tgan davlat Ozarbayjon va qo‘shni davlatlar bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi.



Tarixga nazar tashlasak, asli qozoqmi, qirg‘izmi yoki tojik, turkman, ozarbayjon — barchamizning ildizimiz bir. Shunday ekan, bugun qo‘lga olib berib, yelkama-yelka ishlash har bir davlatga katta manfaat keltiradi.

Umrinimning asosiy qismi qishloq xo‘jaligida o‘tmoqda. Bugun yoshim saksonda. Hamon shu sohada faoliyat yuritaman. Maslahat uchrashuvi jarayonida davlat rahbarlarining ayonan oziq-ovqat xavfsizligiga e’tibor qaratgani men uchun qonunarl bo‘ldi. Bu kelishuvlar etarga har bir mamlakatning obodligi, farovonligi, bozorlari to‘kinligiga xizmat qiladi. Buning uchun qishloq xo‘jaligi sohasida ham o‘zaro tajriba almashish zarurati paydo bo‘ladi. Shu paytga qadar bu borada hamkorlik deyarli yo‘q edi. Endi bu ishlar yo‘lga qo‘yilib, qo‘shni mamlakatlarimiz yetakchi mutaxassislari bilan tajriba almashiladi. Ularning uslubi o‘rganiladi. Shuningdek, biz ham tajribamiz bilan o‘troqlashamiz.

Turkmaniston bilan ham keng ko‘lamli aloqalar yanada mustahkamlanishi borasida qator kelishuvlarga erishildi. Jumladan, “Shovot — Toshhovuz”, “Olot — Forob” chegarasi oldi hududlarida savdo zonasining tashkil etilishi do‘stligimizni yanada mustahkamlaydi.

Bugun birgina Qashqadaryoning o‘zida turkman millatiga mansub ko‘plab yurtdoshlarimiz yashaydi. Ular doim biz bilan aka-uka kabi inoq. To‘y-ma’rakamiz bir. Topganimizni birga baham ko‘rib, yashab kelmokdamiz.

Ko‘pchilikka ma’lum: viloyat Turkmaniston bilan chegaradosh hududda joylashgan. Qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orishda Amudaryodan foydalanib kelamiz. Ayrim nasos stansiyalarimiz Turkmaniston hududida joylashgan. Shunday bo‘lsa-da, bir necha yildan buyon nasoslarimiz uzluksiz ishlab kelmokda. Avval nasoslar uchun ba’zi uskunalar olib o‘tishda muammoga duch kelardik. Hozir bunday masalalar qolmadi.

Qo‘shni mamlakatlar bilan o‘zaro hamjihatlik yurtimiz iqtisodiyotini yangi marralarga olib chiqadi. Eng muhimi, global muammolarning yechimi birgalikda topiladi. Cho‘llanishga qarshi birga kurashib, iqlim barqarorligiga erishiladi. Asosiysi, otabobolarimiz aytganidek, qo‘shnichilik — ming yilchilik an’anasi bardavom bo‘ladi.



Ozodbek NAZARBEKOV,
madaniyat vaziri

Boshlanishi 1-betda

Bunga osonlikcha erishilgani yo‘q. O‘tgan yillar mobaynida, naqadar mushkul bo‘lmasin, davlat boshqaruvi mexanizmlarini yangilash, xalq bilan mulototning soddaga va samarador usul hamda uslublarini hayotga tatbiq etish, eng muhimi, rahbar xodimlar va davlat xizmatchilarining ongu tafakkuri, dunyoqarashini o‘zgartirishga hal qiluvchi omil sifatida alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.

Prezidentimiz hamma bo‘g‘indagi rahbarlardan avvaligidek barcha sharoitlarga ega zamonaviy kabinetlarda o‘tirish emas, balki “quyiga tushib”, mahallama-mahalla, xonadonna-xonadon yurib ishlashni, zimmasidagi topshiriq va vazifalarni yuksak mas’uliyat bilan, vijdonan bajarishni talab qilmoqda.

Joylardagi muammolarni tizimli hal qilishga asos bo‘ladigan normativ-huquqiy hujjatlarining loyihasi xalqimiz muhokamasiga qo‘yilayotgani, odamlarning fikri, munosabati, takliflari o‘rganilayotgani ularning ijrosini ta’minlashni osonlashtirmoqda.

Qaysi sohada islohotga kirishilar ekan, unga doir hujjati puxta tayyorlashga jiddiy e’tibor berilayotgan bo‘lsa, ijrosida muvaffaqiyat va samaraga erishilyapti. Amalga oshirilayotgan bunday ishlar mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish yo‘lidagi strategik maqsadlarni ro‘yobga chiqarishning qudratli vositasiga aylanmoqda.

Shaxsiy javobgarlik — hal qiluvchi omil

Qonunlar, Prezidentimiz farmon va qarorlari, farmoyishlari ijrosini ta’minlashda, shubhasiz, davlat idoralari hamda tashkilotlarda ijro intizomi qat’iy yo‘lga qo‘yilgan bo‘lishi kerak. Zero, har qancha hujjat yoki qaror zarur bo‘lsa, uni ishlab chiqish, qabul qilish mumkin. Ammo ana shu hujjatlarining hayotdagi ijrosi ta’minlanmasa, islohotlar natijadorligi ko‘rinmaydi. Hayotdagi, yon-atrofidagi o‘zgarishlarni har bir inson his etishi uchun ham ijro juda muhim.

Shu bois, davlatimiz rahbari Prezidentlik faoliyatining dastlabki davridanoq davlat idoralari hamda tashkilotlarda xodimlarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, ijro intizomini ta’minlashga jiddiy e’tibor qaratmoqda.

Davlatimiz rahbari kengaytirilgan tartibda o‘tkazilgan bir necha selektor yig‘ilishlarida qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bu borada muhim dasturilamal hujjat bo‘ldi.

Farmon bilan qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etish va monitoring qilishning ta’sirchan tizimini yaratish, davlat boshqaruvi organlari rahbarlari hamda barcha darajadagi xodimlarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar belgilandi.

Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarni puxta ishlab chiqish hamda qabul qilishning ta’sirchan amaliyotini shakllantirish, ularni aniq ijrochilar, keng jamoatchilik va aholiga tekzor yetkazish, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni chuqurlashtirish, joriy, o‘rta muddatli va istiqboldagi vazifalarni samarali amalga oshirish bo‘yicha shoshilinch hamda tekzor choralar ko‘rish maqsadida yagona tizim joriy etiladigan bo‘ldi.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda 2025-yil 25-iyuldagi “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni mamlakatimizda



Vazirlikda ijro intizomini mustahkamlash va topshiriqlar ijrosini barvaqt ta’minlash maqsadida dushanba kuni vazir, juma kuni vazir o‘rinbosari boshchiligidagi muhokamar o‘tkazib kelinadi.

Sohadagi yangilanishlarga doir tegishli hujjatlar loyihalari tayyorlanishi ustidan vazirning shaxsiy nazorati yo‘lga qo‘yilgan. Ularning iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy ekspertizadan puxta o‘tkazilishi, vakolatli davlat boshqaruvi organlarida o‘z vaqtida kelishilishi ta’minlanmoqda.

Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrochilarga tekzor yetkazilishi, jumladan, ularlarga qo‘yilgan vazifalarning mohiyati va ahamiyati keng jamoatchilik hamda aholi o‘rtasida tushuntirilishi, nazorat bandlari va topshiriqlarda aniq mexanizmlar,



muddatlar va mas’ullar belgilanishi bo‘yicha “yo‘l xaritalari” (harakat rejaları) o‘z vaqtida ishlab chiqilishi qat’iy nazoratga olingan.

poydevorini barpo etishdek buyuk maqsadi ro‘yobi madaniy-ma’rifiy islohotlar samaradorligi bilan chambarchas bog‘liq.



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

Bugun dunyo globallashuv jarayoni va raqamli texnologiyalar yo‘liga o‘tdi. Bu esa yoshlardan yangidan-yangi kasblarni o‘rganish, zamonaviy yo‘nalishlarda o‘zini sinab ko‘rishni taqozo etmoqda. Bunday kasb-hunarlar orasida frilanser, sun‘iy intellekt mutaxassisi, raqamli marketolog, DataScientist, robototexnika muhandisi, biomuhandislik, franshizing kabilarga talab yuqori bo‘lishi bashorat qilinmoqda.



Nurbek TOSHKANOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti o‘qituvchisi



Franshizing yirik va kichik tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlar tizimi bo‘lib, bunda kichik firmalar ishlab chiqarish texnologiyasidan foydalanish uchun mashhur firma mahsulotlari yoki xizmatlarini sotish, shuningdek, mashhur savdo belgisidan foydalanish huquqini qo‘lga kiritadi.

U fransuzcha “franchise” so‘zidan olingan bo‘lib, “imtiyoz”, “afzallik” ma‘nosini bildiradi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tgan mamlakatlarda franshizing shartlarida tovar va xizmatlarni sotish darajasi ortib bormoqda. Misol uchun, AQSHda butun chakana savdoning uchdan bir qismidan ko‘prog‘iga franshizing taqdim qilingan. Avstraliyada tezkor xizmat ko‘rsatish korxonalari umumiy savdosining 90 foizdan ortig‘i franshizing shartlarida faoliyat yuritadi. Undan dunyoning 70 dan ortiq davlati foydalanadi.

Franshizingning to‘rtta turi mavjud. Jumladan, ishlab chiqarish franshizingi. Bunda franchayzer firma (fransizani beruvchi) mahsulot patentiga egalik qiladi, franchayzi (fransizani oluvchi) firma esa ushbu mahsulotni franchayzer firma texnologiyasi bo‘yicha sotadi.

Tarqatish franshizingi. Bunda franchayzer firma faqatgina tovarni sotish texnologiyasiga egalik qiladi, tovar esa boshqa yetkazib beruvchidan sotib olinadi. Xizmatlar

franshizingida franchayzer xizmat ko‘rsatish texnologiyasini sotadi. Shuningdek, sanoat franshizingida esa franchayzer ham xizmat ko‘rsatish, ham sotish texnologiyasini sotadi.

Franshizing shartlaridagi tizim franchayzi tomonidan foydalaniladigan intellektual mulk obyekti, shuningdek, sanoat namunalari, firma nomlari, tovar belgilari va nou-xau texnologiyalariga bo‘lgan huquqlarni o‘z ichiga olgan shartnomalar paketidir. Franshiza tovar yoki xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqarish usullari, qayta ishlash va sotish bo‘yicha har qanday tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan tatbiq qilinishi mumkin.

Texnologiyalarni qo‘llashning mobil va mustaqil shakli hisoblangan franshizing ishtirokchilar uchun ko‘plab afzalliklar taqdim etadi. Eng asosiy imtiyozi franshizingni taqdim qiluvchi (franshizer) uchun uncha ko‘p bo‘lmagan sarmoya bilan o‘z faoliyatini tezkor kengaytirish va yangi bozorga kirib borish imkoniyatidir.

Yurtimizda franshizingni huquqiy tartibga solishning qonuniy asoslari Vazirlar Mahkamasining “Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi (franshizing) shartnomalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan mustahkamlab qo‘yilgan.



FRANSHIZING — ZAMONAVIY TADBIRKORLIK MAMLAKATIMIZDA UNING IMTIYOZ VA IMKONIYATLARI QANDAY TARTIBGA SOLINADI?



mashhur tovar belgisi, ya‘ni allaqachon ommalashgan firma nomi va xizmat ko‘rsatish belgisi ostida yuritadi. Franshizing tizimi sotuv bozorida yangi raqobatchilar paydo bo‘lishiga yordam beradi, tovar belgilari raqobatini kuchaytiradi.

O‘zbekistonda franshizing paydo bo‘lganiga uncha ko‘p bo‘lmadi. Biroq allaqachon bu biznes turi ommalashib bormoqda. Yurtimizda

uning aniq sig‘imi va bozor talabini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, tijoratlashtirishning mazkur shakli yirik sarmoyaviy xarajatlar zaruratini yuzaga keltirmaydi. Franshizing natijasiga ko‘ra, bozordagi texnologiyalarni yanada kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Avvalroq ta‘kidlab o‘tilganidek, qonunchiligimizda franshizing kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi deb nomlanadi. Shartnoma bo‘yicha taqdim etiladigan mulq huquqlar kompleksi o‘z ichiga firma nomi, tovar belgisi, ixtirolar, foydali model, sanoat namunasi, tijorat siri, mualliflik huquqi kabilarni qamrab oladi. Shu sababli kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi Vazirlar Mahkamasining yuqorida keltirilgan qarori va Fuqarolik kodeksidan tashqari 2001-yil 30-avgustda qabul qilingan “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi va 2006-yil 20-iyulda “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunlar bilan belgilab qo‘yilgan.

Franshizing shartnomasida mahsulotni ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha franshiza oluvchining xodimlarini o‘qitish ham nazarda tutiladi. Negaki, xalqaro amaliyotga ko‘ra, franshizing shartnomasi, asosan, ikki yoki undan ortiq davlatda joylashgan tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida tuziladi. Bu esa o‘z-o‘zidan franchayzer tomonidan franchayzi turgan davlatda tegishli mahsulotni ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish bo‘yicha o‘qitishni tashkil etishni talab qiladi. Franchayzida ham xodimlarini o‘zi turgan davlatda yoki franchayzer turgan davlatda o‘qitish ehtiyoji mavjud bo‘ladi.

Xulosa o‘rinda aytish mumkinki, kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi, ya‘ni franshizing tijoratlashtirish jihatidan iqtisodiy, intellektual mulk obyektlari muhofazasiga bog‘liqligi bois, huquqiy elementlarni o‘zida birlashtirgan alohida shartnoma turi hisoblanadi. Mazkur aralash shartnoma modelini tuzish, ro‘yxatga olish va bajarishning barcha jihatlari fuqarolik qonunchiligi bilan qamrab olingan. Yuzaga kelgan nizolarni sudgacha va sud tartibida hal qilishning huquqiy mexanizmlari yaratilgan. Ayni paytda mazkur tizimni takomillashtirish, huquqiy mexanizmlarni yaratish ustida zalvorli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, bunda “inson qadri uchun” tamoyili aks etganini ham ko‘rishimiz mumkin. Franshizing bo‘yicha nizolarda apellyatsiya kengashlari qarorlari yuzasidan manfaatdor shaxs tomonidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkinligi, ma‘muriy organlar uchun esa mazkur qarorlar qat‘iy hisoblanishi va ulaming ustidan shikoyat qilinishi mumkin emasligi belgilanishi ham buning yaqqol isbotidir.

YURTIMIZDA QADR TOPIB, QADDIMIZ TIK BO‘LDI

Taqdir bitigini o‘zgartirish imkonsiz. Ammo uni boshqalarga tushuntirish muammo. Musharraf opa ilgari har safar imkoniyati cheklanganini isbotlash uchun idorama-idora yuraverib holdan toyib qolardi. Nari borsa, bir yilga yetmasidan nafaqa to‘xtab qolar, yana tibbiy ko‘rikdan o‘tish zarur edi. Shifokorlarning xulosasi uchun eshikma-eshik kirib chiqar, aksiga olib, ularning biri topilsa, ikkinchisi yo‘q bo‘lardi.



Bugunning gapi

Aytilgan hujjatlarni yig‘ib chiqquncha bir-ikki oy o‘tib ketardi. Bu esa sog‘lig‘iga ham salbiy ta‘sir etardi. Gohida yugur-yugurdan charchab, nafaqadan voz kechgan paytlari bo‘ldi. Afsuski, imkonsizlik uni yana harakatga undardi. Shunday paytda ko‘lga yana qog‘oz olib, murojaat qilishga majbur bo‘lar, ammo xatiga javob ham tezda kelavermasdi. Bir amallab, yana bir yilga qadar nafaqani tayin qilib olardi.

Yangi O‘zbekistonda inson qadri uchun boshlangan islohotlar sabab vaziyat tubdan o‘zgardi. Xususan, nogironligi bo‘lgan kishilar uchun ham katta imtiyozlar berildi. Muhimi, ularni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Har bir mahallada ijtimoiy xodim birliktirilib, ish yuritadigan bo‘ldi.

— Avval birgina nafaqa olish uchun ham qancha sarson bo‘lardik, — deydi Qarshi shahri Oydin mahallasida yashovchi birinchi guruh nogironi Musharraf Jo‘rayeva. — Qancha idoralarga kirib chiqishga majbur edik. Endi buning barchasiga barham berildi. Ayniqsa, mahallaga ijtimoiy xodim birliktirilib biz kabi imkoniyati cheklanganlarga qulaylik tug‘dirdi. Buning uchun doim duodamiz. Har doim mutasaddilar ahvolimizdan xabardor bo‘lib turibdi. Kerakli yordamini ayashgani yo‘q. Yaqinda hukumatimiz tomonidan bir million so‘m yordam puli berildi. Bundan ko‘nglim tog‘dek ko‘tarildi. Sovuq kunlar boshlanib, elektrni o‘ylab yurgandim.

Bu mushkulimizni ancha oson qiladigan bo‘ldi. Ha, yurtimizda qadr topib, qaddimizni tiklayapmiz.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 2-apreldagi “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishda ehtiyojmand aholini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlash doirasida Qashqadaryo viloyatida ham oilalarga 1 million so‘mdan bir martalik moddiy yordam berilmoqda.

— Belgilanganidek, reyestrlarga kiritilgan, “mahalla yettilligi” xulosasi asosida hamda “mahalla yettilligi” tomonidan qo‘shimcha shakllantirilgan ro‘yxatdagi fuqarolarga moddiy ko‘mak ajratilmoqda, — deydi Oydin mahallasi ijtimoiy xodimi Yoqutxon Rajabova. — Bu aholining ijtimoiy qatlami uchun katta yordam bo‘lmoqda. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan fuqarolar bundan mamnun.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi mas‘ullari ma‘lumotiga ko‘ra, o‘tgan yili viloyat bo‘yicha fuqarolarga 31 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ to‘lab berilgan. Joriy yilda bu mablag‘ miqdori ancha organini ko‘rish mumkin. Jumladan, bu yilgi isitish mavsumida 134 milliard so‘mdan ortiq bir martalik moddiy yordam puli berilishi rejalashtirilgan.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Beruniy tumanidagi “Birlik” mahalla fuqarolar yig‘inida tomorqadan samarali foydalanish uchun imkoniyatlar yaratildi. Tajribali dehqon Yo‘ldosh Narimbetov tashabbusi bilan mahallada yangi qishloq xo‘jaligi yo‘nalishi ochildi. U brokkoli karami yetishtirishni yo‘lga qo‘ydi. Shu tariqa ushbu parhezboq ekin turi Qoraqalpog‘iston sharoitida ham yetishtirilib, ichki va tashqi bozorda sotila boshladi. Natijada aholi daromadi oshib, qo‘shimcha ish o‘rinlari ochildi.

Namunali tomorqachi Yo‘ldosh Narimbetov joriy yil avgustda 1,5 gektar maydonga karam ekan edi. Hozir har bir ko‘chatdan yarim kilodan bir kilogacha hosil olmoqda. Tomorqachi 1,5 gektar maydondan jami 15 tonna hosil olishni mo‘ljall qilgan. Asosiysi, bu poliz ekinini yetishtirish bo‘yicha tajriba boshqa mahallalarda ham yo‘lga qo‘yilmoqda.

— Brokkoli vitamin va foydali mikroelementlarga boy poliz ekinini. Uni muntazam iste‘mol qilish immunitetni mustahkamlaydi. Ovqat hazm qilish organlari faoliyatini yaxshilab, xolesterinni yo‘qotishga yordam beradi, — deydi “Do‘stlik” ordeni sohibi Yo‘ldosh Narimbetov. — Qolaversa, brokkoli karami tez o‘sadi. Ekilgach, 60-80 kunda yig‘ib olinishi mumkin. Bir gektardan 15-20 tonnagacha hosil beradi. Muhimi, bozorgir. Shuning uchun ham istiqbolli biznes.

Beruniy tumanida 5 ta asalarichilik xo‘jaligi bor. Aholi dala cheti va bog‘ oralarida asalari boqib, oilasiga daromad olib kirmoqda. Xususan, tumanning “Tinchlik” ovul fuqarolar yig‘inida yashovchi Po‘lat Ametov asalarichilikda ko‘p yillik tajribaga ega. U bilimi va tajribasini sohaga yangi kirib kelayotgan yurtdoshlarimizga ham o‘rgatmoqda.

— Xalqimiz asalarini yetti xazinaning biri deydi. Bu gapning mazmuni g‘oyat teran. Chunki mitti hasharotning juda katta foydasi bor. Qolaversa, mamlakatimizning tabiiy iqlim sharoiti asalarini ilg‘or texnologiya asosida ekin maydonlari atrofida boqish uchun nihoyatda qulay. Asalarining asaldan tashqari, mumi, gulchangi, propolis, asalari suti va zahri ham nihoyatda qimmatbaho. Ular tibbiyot va farmatsevtika sanoatida noyob



Dehqon xazinas

xomashyo sifatida ishlatiladi, — deydi Po‘lat Ametov.

Prezidentimizning “Qishloq xo‘jaligi maydonlaridagi qo‘shimcha imkoniyatlardan foydalangan holda mahsulot yetishtirishni ko‘paytirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, dala chetlari, kanallar, sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarda eksportbop ekinlar ekish muhim vazifa etib belgilangan. Bu borada Beruniy tumanida muayyan amaliy ishlar qilinmoqda. Jumladan, bog‘ qator oralariga to‘qsonbosti ekinlar ekilmoqda. Shuningdek, mevali daraxtlarga shakl berilmoqda.

Tumanda 577 gektar bog‘ bor. Shundan 92 gektari tokzor. Yangi barpo etilgan bog‘lar maydoni esa 87 gektar. Ulardan 60 gektarida g‘alla ekish imkoniyati mavjud. Tuman mas‘ullari mana shu joylardan ham

unumli foydalanishga harakat qilyapti. Dehqonchilik borasida beruniyliklarning o‘ziga xos tajriba maktabi shakllangan. Shu kunlarda mohir mirishkorlarning mehnati samara ko‘rsatyapti. Jumladan, “Navoiy” ovul fuqarolar yig‘inida erishilgan yutuqlar ancha salmoqli. Dehqonchilik — hududning asosiy drayverlaridan.

Mahalladagi hokim yordamchisining aytishicha, joriy yilda hududda g‘alla o‘rniga ekinlar sabzavot va polizdan yuqori hosil olingan. Masalan, “Izzat Jumaniyazov” fermer xo‘jaligi a‘zolari 3 gektarga sabzi, turp, sholg‘om, karam kabi sabzavotlar ekan. Hozir fermer hosilini yig‘ib-terib olmoqda.

Bundan tashqari, tuman ahli chorvachilikda ham o‘ziga xos natijalarga erishyapti. Masalan, Sapargul Jamalova semintal va goldsheyt zodli nasli qoramol boqadi. Sigirlarning har biri kuniga 30-40 litr sut beradi. Bu

oila uchun yaxshigina daromad degani. Qahramonimizning rejasi katta. U zamonaviy fermer xo‘jaligi tashkil qilmoqchi.

Yurtimizda to‘qsonbosti ekinlar ekishga ham jiddiy e‘tibor berilyapti. Jumladan, Qoraqalpog‘istonda hosildan bo‘shagan maydonlarga, bog‘ qator oralariga sovuqqa chidamli sabzi, piyoz, sarimsoqpiyoz, osh lavlagi, kashnich, petrushka, selderey, salatbargi kabi ko‘katlar to‘qsonbosti usulida ekilmoqda.

Kuzning quyoshli kunlaridan unumli foydalanib, to‘qsonbosti usulida yerga urug‘ qadagan dehqon hech qachon yutqazmaydi. Chunki aynan ana shu usulda ekilgan ekinlar juda erta, qish nisbatan iliq kelgan yillarda hatto fevral oxiridanoq unib chiqqa boshlaydi. Shu tariqa dehqonga yaxshigina daromad keltiradi.

Amudaryo tumanida ham fermerlar bo‘sh qadalar, aholi tomorqasiga, bog‘ qator oralariga iqlim sharoitiga mos sabzavotlarni to‘qsonbosti usulida ekishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Xususan, tumanda bog‘dorchilik yo‘nalishidagi fermer xo‘jaliklarining 1096 gektar bog‘i bor. Shundan 20 gektariga to‘qsonbosti usulida ekin ekilmoqda.

Yaqinda tumandagi “Ulug‘bek Hosilbek” mas‘uliyati cheklangan jamiyati tasarrufidagi dalada ko‘rgazmali seminar tashkil etildi. Unda soha mutaxassislari to‘qsonbosti usulida ekin ekish sirlari bilan o‘rtoqlashdi. Xususan, urug‘ tanlash va saralash, dalaga ishlov berish, ekin ekilgan bog‘ni ni ihtolash, sug‘orish va oziqlantirishning muddatlari, yer muzlab, ekinni sovuq urmasligi uchun himoya usuli kabi zarur agrotexnik tadbirlar bo‘yicha batafsil ma‘lumot berildi. Shuningdek, O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining Amudaryo tumani bo‘limi mutaxassislari hasharot va zararkunandalarga qarshi kurash choralarini bo‘yicha maslahatlar berdi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yuksalish odimlari

Samarqand sessiyasida taqdim etilgan tashabbuslar doirasida “Sun’iy intellekt maktabi” pilot loyihasi, inklyuziv ta’lim mexanizmlari, kasbiy tayyorgarlik va kreativ ko’nikmalarni rivojlantirishga bag’ishlangan forumlar e’tirof etildi.

Maziy va



unesco

KELAJAK TUTASHGAN MANZIL

Boshlanishi 1-betda

Xalqaro kuzatuvchilar ham Samarqandga bildirilgan bu ishonchni mamlakatning keyingi yillardagi madaniy va ta’lim siyosatini e’tirof etuvchi omil sifatida talqin qildi. Rasmiy chiqishlarda O’zbekistonning jahon madaniy merosini asrash, qadimiy shaharlarni qayta tiklash, yangi ekspozitsiyalar va madaniy markazlar tizimini yaratish bo’yicha ishlari alohida qayd etildi. Shuningdek, UNESCO bilan 2023-2027-yillarga mo’ljallangan hamkorlik dasturida madaniy meros, ta’lim islohoti va innovatsiyalar ustuvor yo’nalish sifatida ko’rsatib o’tildi.

Samarqanddagi Bosh konferensiya ikki yo’nalish kesishmasida yuzaga kelgan noyob maydon sifatida namoyon bo’ldi. Bir tomondan UNESCOning global mandatini ifoda etuvchi ko’p tomonlama muzokaralar, boshqa tomonda esa yangi O’zbekiston konsepsiyasi asosidagi islohotlarning mantiqiy va amaliy natijalari.

Madaniy meros siyosati

O’zbekistonda madaniy meros masalasiga e’tibor yangicha mazmun kasb etmoqda. Bu yo’nalish faqat tarixiy obidalarni tiklash yoki muzey fondini kengaytirish darajasida bo’lmay, jamiyatning ma’naviy qatlamini boyitish, xalqaro maydonda mamlakatning madaniy salohiyatini namoyon etish, iqtisodiy rivojlanishga zamin yaratish vazifasini qamrab olmoqda. UNESCO bilan hamkorlik ana shu jarayonning asosiy ustuniga aylandi. Qator xalqaro hisobot va rasmiy uchrashuvlarda O’zbekistonning meros obyektlarini saqlash hamda ularni ommalashtirish bo’yicha tashabbuslari alohida e’tirof etildi. Ayniqsa, tarixiy shaharlar bo’yicha qilingan restavratsiya ishlari, arxeologik yodgorliklarni ilmiy pasportlashirish jarayoni, nomoddiy merosga oid ro’yxatlar kengayishi xalqaro doiradagi baholashlarda ijobiy ko’rsatkich sifatida qayd qilindi.

Mamlakatimizdagi siyosiy yondashuv ham uzluksiz takomillashmoqda. Xususan, Madaniy meros agentligi tashkil etildi. Unga muzeylar, arxivlar, tarixiy hududlarni boshqarish, restavratsiya loyihalariga ilmiy asos berish kabi vakolalar yuklandi. Bu institutlashuv madaniy siyosatga tartibli mexanizm olib kirib, davlat va jamiyat ishtirokini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Ko’plab tarixiy hududlarning qayta tiklanishi, yangi ekspozitsiyalarning yaratilishi, madaniyat sohasi bo’yicha xalqaro loyihalarda faollashuv ana shu tizimli yondashuv bilan bevosita bog’liq.

Samarqandda o’tgan anjuman bu jarayon keng miqyosda tan olinganini ko’rsatdi. Unda nafaqat moddiy obyektlar, balki til, an’ana, hunarmandchilik, xalq og’zaki ijodi, tarixiy

xotira shakllari kabi nomoddiy merosni asrab-avaylash masalasi kun tartibiga chiqdi. O’zbekiston mazkur yo’nalishda ham faol qatnashib, merosni raqamlashtirish, arxivlarni ochiq ma’lumot formatiga o’tkazish, tarixiy shaharlar bo’yicha ilmiy markazlar faoliyatini kuchaytirish taklifini ilgari surdi.

Shu bilan birga, bu borada yechimini kutayotgan masalalar ham mavjud. Ayrim tarixiy hududlar bo’yicha restavratsiya ishlari murakkab va ko’p bosqichli bo’lib, ilmiy metodologiya, jamoatchilik ishtiroki, manbашunoslik asoslariga qat’iy rioya etish kabi talablar kuchaymoqda. Raqamlashtirish dasturlari kengaygani sayin arxiv tizimi, texnik infratuzilma va malakali mutaxassislariga ehtiyoj ortmoqda. Chunki iqtisodiy resurs sifatida faol ishlatish siyosati rivojlanayotgan bir sharoitda turizm bosimi, shaharsozlik jarayoni, ekologik barqarorlik kabi masalalarda ehtiyotkorlik tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Umuman olganda, O’zbekiston madaniyat va meros sohasida allaqachon yangi bosqichga chiqdi. Jahon madaniy merosi ro’yxatiga kiritilgan hududlar ko’paygan, nomoddiy meros ro’yxatlarini boyigan, xalqaro hamkorlik kengaygan va raqamli arxivlash ishlari jadal rivojlanmoqda. Samarqanddagi sessiya ushbu jarayonning yirik global minbarda tan olinishi bo’lib, mamlakatning madaniy siyosatini yanada puxta va tizimli davom ettirish uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Ta’lim va ilm-fanda transformatsiya jarayoni

Ta’lim tizimi o’zgarishining lokal va global bosqichlari dastlab maqsad va yo’nalishlarni aniqlashdan boshlanadi. Shunga ko’ra, ta’limdagi tub o’zgarishlar bir necha jihatda namoyon bo’lmoqda.

Birinchii jihat — o’qituvchilarning tayyorgarligi va kasbiy rivojlanish tizimini

takomillashtirish. 2025-yil 9-iyul kuni Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda UNESCO o’rtasida imzolangan yangi bitim ushbu yo’nalishda o’qituvchilarni tayyorlash tizimini yangilashga yo’l ochdi. To’rt yilda 6,5 million dollar miqdorida investitsiya kiritish ko’zda tutilgan va unda o’qituvchilar uchun yangi amaliyot imkoniyatlari, zamonaviy dars metodlari hamda ta’lim resurslari yaratish ko’zda tutilgan.

Ikkinchi jihat — ma’lumot va nazorat tizimlarining takomillashuvi. O’zbekistonda 2025-yil 14-may kuni UNESCO tomonidan Markaziy Osiyoda birinchi bo’lib ta’lim ma’lumotlari tizimini baholash vositasi (EMIS PATT) joriy etildi. U ta’lim ma’lumotlari infratuzilmasi, ma’lumotlar bazasi, tahlil va ma’lumot tarqatish tizimlari bo’yicha muammolarni aniqlash hamda asosli qaror qabul qilish imkonini beradi.

Uchinchi jihat — raqamli transformatsiya hamda zamonaviy kasbiy tayyorgarlik yo’nalishlari kengayishi. Samarqand sessiyasida taqdim etilgan tashabbuslar doirasida “Sun’iy intellekt maktabi” pilot loyihasi, inklyuziv ta’lim mexanizmlari, kasbiy tayyorgarlik va kreativ ko’nikmalarni rivojlantirishga bag’ishlangan forumlar e’tirof etildi.

Transformatsiya jarayonining ta’lim va ilm-fan bosqichida yuzaga kelayotgan salohiyati tahlil qilinsa, uch yo’nalish yaqqol ko’zga tashlanadi.

Birinchisi — o’qituvchilar va maktablar o’qitish sifati uchun asosiy omilga aylanishi. Ma’lumotlar tahlili, metodik qo’llanmalar, mentorlik tarmoqlari orqali o’qituvchilar malakasi oshirilmoqda. Bu esa ta’lim natijalari bilan bevosita bog’liq.

Ikkinchisi — ma’lumot resurslari va boshqaruv tizimlari zamonaviy standartlarga moslashmoqda: ma’lumotlarni raqamlashtirish, tizimli tahlil etish va qarorlarni dalillarga asoslanib qabul qilish imkoniyati kuchaydi.

Uchinchisi — kasb va raqamli ko’nikmalarni rivojlantirish orqali tizim dunyo standartlariga moslashyapti.

Ta’lim va ilm-fandagi transformatsiya jarayoni O’zbekistonga kelajakda mustahkam inson kapitali yaratish, innovatsiya asosida rivojlanish yo’lini tanlash imkoniyatini berishi mumkin.

Davomli manfaatdorlik

Samarqandda o’tgan UNESCO Bosh konferensiyasi O’zbekiston uchun qisqa muddatli protokol muvaffaqiyati bilan cheklanmaydigan, ancha chuqur va uzoq davom etadigan imkoniyatlar majmuini ochdi. Bu imkoniyatlar bir paytning o’zida uch yo’nalishda — iqtisodiy, madaniy va diplomatik maydonlarda shakllanmoqda. Ularning har biri islohotlar jarayoniga yangi ma’no qo’shadi.

Iqtisodiy nuqtayi nazaridan, “Silk Road Samarkand” sayyohlik majmuasi atrofida yuzaga kelgan yangi dinamikani alohida qayd etish mumkin. Bu majmua qurilishiga 580 million dollardan ortiq investitsiya yo’naltirilgan, loyihada o’n minglab mutaxassis ishlagani e’tiborga molik. 2024-yilda majmua mehmonxonalarida tunab qolgan sayyohlar soni 80 mingdan oshib, avvalgi yildagiga nisbatan qariyb 50 foiz o’sish qayd etilgan ham ana shu infratuzilmaning sayyohlik oqimiga ta’siridan dalolat beradi. Ushbu raqamlar mehmonxona bandligi yoki xizmatlar bozoridagi jonlanish bilan bir qatorda yangi ish o’rinlari ochilishi, mahalliy tadbirkorlik kengayishi, xizmatlar eksperti, logistika va transport tarmoqlariga yuklama organi bilan ham bog’liq. UNESCO konferensiyasiga mezbonlik qilgan shahar endi xalqaro kongresslar, forumlar, ilmiy anjumanlar uchun sinovdan o’tgan maydon sifatida ko’riladi. Bu esa kelgusida boshqa yirik tadbirlarni jalb etish imkonini kuchaytiradi.

Madaniy sohada imkoniyatlar yanada rang-barang. O’zbekiston va UNESCO o’rtasidagi uzoq yillik hamkorlik natijasida besh tarixiy majmua Jahon madaniy merosi ro’yxatiga kiritilgan. Bu ro’yxat muttasil kengayib borayotgani haqidagi ma’lumotlar rasmiy ravishda e’lon qilib kelinadi. Samarqand anjumani bu hamkorlikni yangi darajaga olib chiqdi: Buxoroda o’tkazilgan xalqaro san’at biennalesi, tarixiy hududlarda tashkil etilayotgan ko’rgazmalar va performanslar mamlakatimizning zamonaviy san’at orqali o’zini namoyon qilish ushbu shakllanayotganidan dalolat. Bu tadbirlar orqali meros shunchaki muzey vitrinasi ortida qolgan statik manzara holatida tushunilmaydi, aksincha, ijodiy tajribalar va yangi ma’no qatlamlari uchun ochiq makonga aylanadi. Shunday yondashuv yoshlar uchun yangi kasb va kompetensiyalar maydonini yaratadi, restavratsiya, kuratorlik, madaniy menejment, kreativ industriyalor sohasi bo’yicha ichki bozor shakllanishiga turtki beradi.

Diplomatik maydonda esa O’zbekistonning yumshoq kuch strategiyasi sezilarli darajada kuchaymoqda. Tahliliy maqolalar hamda ilmiy ishlar mamlakatimizning tashqi siyosatda madaniy diplomatiya, san’at va merosga tayangan konsepsiyasi tobora kuchayib borayotganini ko’rsatadi. UNESCO bilan hamkorlik bo’yicha rasmiy shaharlarda ham O’zbekistonning keyingi yillarda xalqaro normal va tamoyillarni ta’lim, fan, madaniyat, omamaviy axborot vositalari sohalariga izchil tatbiq etayotgani alohida ta’kidlandi.

Yakunda qabul qilingan rezolyutsiyada O’zbekiston xalqiga va hukumatiga “favqulodda mehmondo’shtlik va yuqori darajadagi tashkilotchilik” uchun minnatdorlik bildirilgani esa diplomatik kapital oshganidan dalolat. Bu urdagi siyosiy ishlar xalqaro tashkilotlar, donorlar va investorlar ko’z o’ngida O’zbekistonning ishonchlilik darajasini oshiradi, uzoq muddatli hamkorlik loyihalarini uchun psixologik va institutsional zamin yaratadi.

Bekdavlat ALIYEV,

falsafa fanlari doktori, professor,

Islombek RAHMONBERDIYEV,

falsafa fanlari bo’yicha falsafa

doktori

Innovatsiya

IXTIROCHI O’QUVCHILAR

QISHLOQ XO’JALIGIGA NAVBATDAGI QURILMANI TUHFA ETYAPTI

Namangan viloyati Uchqo’rg’on tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab o’quvchi qizlarining innovatsion loyihasi — “Clima Sense” avtomatlashtirilgan monitoring tizimi muassasaning birinchi yutug’i emas. Ta’lim dargohi ko’plab tanlovlardagi yutuqlari bilan tuman, viloyat va respublika miqyosida ham e’tirof etildi.

Maktabning texnologiya fani o’qituvchisi Sojida Qobulova boshchiligidagi o’simlik urug’larini bir sutkada undirish tajribasi — “Seed House” (urug’xona) innovatsion qurilmasi ham yurtimiz bo’ylab tanilgan. Muqobil bo’lmagan, “yashil” energiya asosida ishlaydigan mazkur qurilma amaliyotga tatbiq etilgan. Zero, eng sekin unib chiqadigan makkajo’xori urug’ini ham 24 soatda undirishga erishish har qanday fermer yoki dehqonning yutug’i. Chunki yerga qadalgan urug’ning bir kun barvaqt unishi ham dehqonchilikda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun to’liq robotlashtirilgan tizim orqali boshqariladigan, ikki mingga yaqin sabzavot va o’simlik urug’ining 99 foiz unib chiqishini

ta’minlaydigan bu qurilmaga ko’pchilik qiziqish bildiriyapti. Shundan kelib chiqib, innovatsion undirilgan nihollarni maktabning chog’roqina issioxonasida ekish barobarida tumandagi fermer xo’jaliklariga ham yetkazib berish ishlari boshlab yuborilgan. Qishloq xo’jaligini intensivlashtirishga harakat qilinayotgan ayni paytda bunday tajriba urug’chilikda jahonning qimmatli genofondini saqlab qolish hamda undan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Ixtirochi o’quvchilarning “Bu loyihamiz ortidan daromad ham olyapimiz”, degan gapi ko’nglida hayrat uyg’otdi.

Navbatdagi “Clima Sense” (iqlimni oldindan sezuvchi) loyihasi ham Sojida Qobulova

boshchiligidagi maktabning texnologiyalarga qiziquvchi o’quvchilari — Nafisa Dilmurodova, Muazzam Nabijonova tomonidan ishlab chiqildi. Qurilma atrof-muhitdagi holatni real vaqt rejimida kuzatish va favqulodda holatlar yuzaga kelishi ehtimoli haqida oldindan ogohlantirishga mo’ljallangan.

Muallimning aytishicha, mazkur moslamaga o’rnatilgan sensorlar harorat, namlik, shamol kuchi hamda boshqa meteorologik ko’rsatkichlarni aniqlik bilan o’lchab boradi. Olingan ma’lumotlar Arduino yoki ESP32 mikrokontrolerlari orqali qayta ishlanadi. Agar parametrlar oldindan belgilangan me’yorlardan oshsa yoki pasaysa, tizim avtomatik tarzda displeyga ogohlantiruvchi ma’lumotni chiqaradi hamda ovozi signal beradi. Qurilmaga ulangan SMS modul yordamida foydalanuvchiga masofaviy xabaroma yuborish mumkin. Bunda innovatsion tizimning amaliy ahamiyati yuqori bo’lib, meteorologik o’zgarishlarni erta aniqlash orqali tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish, ekinlar uchun optimal mikroiklim yaratish, issioxonalarda energiya samaradorligini oshirish hamda aholi xavfsizligini ta’minlashga ko’maklashadi.



Yurtimizda yoshlarning ixtirochilik qobiliyatini rivojlantirish, xususan, AT va robototexnika sohalariga juda katta e’tibor berilyapti. Bu o’quvchilar uchun ham yangi

imkoniyatlarni ochyapti. Maktabda aynan shu sohalariga alohida e’tibor qaratiladi. Natijada turli startap loyihalar amalga oshirilyapti. Yangi loyiha iqlim o’zgarishini oldindan

ogohlantiruvchi tizim. To’g’ri, bunday xizmat ko’rsatuvchi alohida tashkilotlar bor. Biroq bu xizmat respublikamiz bo’yicha umumiy ma’lumotlarni beradi. Qurilma esa muayyan hudud ob-havosi haqidagi ma’lumotlarni fermer va dehqonlarga individual tarzda yetkazib turadi. Shu ma’noda, loyiha iqlim o’zgarishi tufayli yuzaga kelayotgan, salomatlikka salbiy ta’sir ko’rsatuvchi omillar, tabiatga yetkazilayotgan zararlarni kamaytirishda juda qo’l keladi. Ya’ni qurilma yordamida dehqonlar ekin ekish va yig’ishtirib olish jarayonini oldindan rejalashtirishi mumkin.

Loyiha uchun turli uzatkichlardan foydalanilgan. Jumladan, elektr manbaini tejash maqsadida quyosh panellari qo’llangan. Bu elektr manbaini to’plab, led lampalar ishlashida yordam beradi. Yomg’ir uzatkichni kutilayotgan yog’in haqida ogohlantirish, bu haqdagi ma’lumotni displeyga ko’rsatadi. Bug’ uzatkich esa sho’rlanib ketgan yerlarni namlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, qurilmada havoning namligi, haroratini aniqlovchi uzatkichlar ham mavjud.

Bugun yoshlarning aqlli salohiyati, texnologik bilimdonligi katta avlod vakillarini hayratga solayotgani rost. Ularning bu boradagi bilimlarni juda tez o’zlashtirib olishi benihoya qiziqish, yangilikka intilishdan dalolat. Yoshlarning iqtidori, g’oyalardan unumli foydalanish orqali yuqoridagi kabi manfaatli loyihalarining hayotimizga kirib kelishiga erishish mumkin. Ayniqsa, Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tashkil etgan “Ixtirochilikka qadam” tanlovi ijodkor, bilimga chanoq, ixtirochi yoshlarni kashf etishda muhim omil bo’lyapti. Shuningdek, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamkorligidagi “Raqamli avlod qizlari” tanlovi ham yuzlab yangi startap egalari yuksak marralar sari ruhlanityapti.

Munojat MO’MINOVA,

“Yangi O’zbekiston” muxbiri



U shunday darajaga erishdiki, yoshu qari, shaxsan tanisa-tanimasa, ismining ortiga “ota” qo‘shimchasini qo‘shib, “Mirabbos ota” deyding bo‘ldi. Bunday saodatga yetish — xalq mehri va e‘tirofiga erishishning o‘zi bo‘lmagan, albatta. Endi, taqdir ekan, Mirabbos Mirzaahmedov haqida, qanchalar og‘ir bo‘lmasin, o‘tgan zamon tilida gapirishga mahkummiz. Milliy madaniyatimiz va san’atimizning atoqli namoyandasi, mashhur rejissyor va teleboshlovchi, milliy televideniya o‘z maktabini yaratga olgan Mirabbos Mirzaahmedovning vafoti haqidagi xabar millionlab ko‘ngillarga qayg‘u solgani bor gap.

Xotira

MEHR-OQIBATNING CHIN TARG‘IBOTCHISI EDI

“USTOZ MENGA, QOLAVERSA, HAR BIR AKTYORGA O‘TADEK MEHRIBON VA G‘AMXO‘R EDI. SSENARIY BILAN ISHLASHGA JUDA TALABCHAN BO‘LGAN. BIZNING AVLODDAGI AKSARIYAT SAN’ATKORLARDA QANDAY YAXSHI FAZILAT VA XISLAT BO‘LSA, BU MIRABBOS AKANING XIZMATIDIR.”

beriladigan har bir rolga yurak qo‘rini berib ishlashga o‘rgatgan inson ham Mirabbos otadir. Botir Muhammadjonov bunday deydi: — Televideniyaedagi ilk qadamlarim 1986-yili “O‘talar so‘zi — aqlning ko‘zi” ko‘rsatuidan boshlangan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan

artist Rixsivoy Avazov meni Mirabbos Mirzaahmedovning yoniga olib borgan. Beadad shukr, shu ko‘rsatuvda 500 dan ortiq rol ijro etib, xalqqa tanildim. “O‘talar so‘zi”ga chiqish har bir boshlovchi aktyor uchun baxt edi. Mening oz bo‘lsa-da, elga tanilishimda Mirabbos

akaning xizmatlari juda katta. Kichik epizod rollardan to asosiy qahramonlarni gavdalantirishga muvaffaq bo‘ldim. Ustoz menga, qolaversa, har bir aktyorga otadek mehribon va g‘amxo‘r edi. Senariy bilan ishlashga juda talabchan bo‘lgan. Bizning avloddagi aksariyat san’atkorlarda qanday yaxshi fazilat va xislat bo‘lsa, bu Mirabbos akaning xizmatidir.

Darhaqiqat, butun umr doimo izlanib, xalqimizga sidqidildan xizmat qilib kelgan zahmatkash ijodkor o‘ziga xos mahorat va tajriba maktabini yaratib, ko‘plab yoshlarga ustozlik qildi. Shu o‘rinda yana bir gap: ko‘pchilik bilmas, Mirabbos ota o‘z vaqtda bolalar drama to‘garagiga ham rahbarlik qilgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, xalqimizning “Shum bola”si Abduraim Abduvahobov ham ana shu to‘garakdan uchirma bo‘lgan. G‘afur G‘ulom

asari asosida 1977-yilda suratga olingan filmni hamon zo‘r qiziqish bilan tomosha qilamiz. Milliy kinomiz durdonalari qatoridan munosib o‘rin olgan mazkur kinoasar suratga olinganiga salkam ellik yil bo‘ldi. — Film suratga olinishidan avval bolalar gazetasida bosh rol uchun kasting e‘lon qilingandi, — deya xotirlagan edi Abduraim Abduvahobov. — “Shum bola” asarini men beshinchi sinfligimda o‘qigan edim. Filimga

kastingdan o‘tganimdan so‘ng asarni qayta o‘qib chiqqanman. Uchinchi sinfda o‘qib yurganimda “O‘talar so‘zi — aqlning ko‘zi” teko‘rsatuvi boshlovchisi, rejissyor Mirabbos Mirzaahmedov boshchiligidagi drama to‘garagiga qatnashardim. Aktyorlikka, qolaversa, san’atga shu inson meni oshufta etgan. Yuqoridagi kasting uchun Qoravoy roliga meni Mirabbos aka tavsiya qilgan. Men yaratgan Shum bola obrazini tomoshabinlar yaxshi kutib olganidan so‘ng to‘garak rahbarining qo‘llab-quvvatlovi bilan san’atkor bo‘lish haqidagi qarorim yanada qat’iylashgan.

Taniqli san’atkor, samimiy va kamtarin inson, yoshlarning mehribon ustози mamlakatimiz madaniyati va san’atini rivojlantirishni hayotining mazmuni deb bildi. Ustoz umrining oxirigacha “O‘talar so‘zi — aqlning ko‘zi” dasturi boshlovchisi va badiiy maslahatchisi sifatida samarali faoliyat yuritib keldi. Mirabbos Mirzaahmedovning bebaho ijodiy saboqlari va hayotiy o‘g‘itlari shogirdlari, hamkasblari va millionlab tomoshabinlar dillarida o‘chmas iz qoldirdi.

Mirabbos Mirzaahmedov ijodida xalqimizning yana bir sevimli ko‘rsatuvi — “Televizion miniatyuralar teatri” ham alohida o‘rin tutadi. U o‘nlab intermediyalar, kulgi, satira va yumorga boy sahna asarlarini ekranlashtirgan. Ayniqsa, 1980-yilda Mirabbos aka rejissyorlik qilgan “Yoz hangomasi” komediyasi televideniye “oltin fondi”ni hamon bezab turibdi. El ardog‘ida bo‘lgan Ergash Karimov, Hasan Yo‘ldoshev, Husan Sharipov, Vohid Qodirov, Xayrulla Sa‘diyev kabi aktyorlar ijrosidagi obrazlar, ularning tilidan aytilgan iboralar tomoshabin mehrini qozonib, hamon davralarda esga olinadi.

Zahmatlari ortidan Mirabbos Mirzaahmedov “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” faxriy unvoni, “Mehnat shuhrati” va “Do’slik” ordenlari sohibi bo‘lish, eng asosiysi, xalqimiz qalbidan chuqur o‘rin olishga musharraf bo‘ldi.

Mirabbos Mirzaahmedov vafoti munosabati bilan davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan bildirilgan hamdardlikda bunday satrlar bor:

“M.Mirzaahmedov o‘zining nuroniy va donishmand qiyofasi, ko‘p yillik bilim va tajribasi bilan markaziy telekanallarimiz orqali 40 yildan buyon namoyish etib kelinayotgan “O‘talar so‘zi — aqlning ko‘zi” ko‘rsatuviga yangicha ruh va mazmun olib kirdi hamda ushbu dastur orqali jamiyatimiz hayotidagi ijtimoiy-ma’naviy muammolarga jamoatchilik e’tiborini qaratish, el-yurtimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida oila va Vatanga muhabbat, odob-axloq, mehr-oqibat g‘oyalari targ‘ib etishga katta hissa qo‘shdi”.

Ushbu qo‘shilgan katta hissiy esa hali uzoq yillar yana ko‘plab avlodlar faxr bilan e’tirof etadi.

Nodir MAHMUDOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Mulohaza

Oila — jamiyatning ustuni, uning barqarorligi esa, shubhasiz, ko‘p jihatdan ota shaxsiga bog‘liq. U adolat, mas’uliyat va mehr timsoli, farzand uchun hayot maktabidagi ilk ustoz. Mas’uliyatli otalik yuksak ma’naviy qadriyat bo‘lib, avlodlar davomiyliyi va millat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. “Ota bor uyda tartib bor, mehr bor” hikmati ham shu haqiqatni ifodalaydi. Hadislarda farzandingizga yaxshi ism, yaxshi tarbiya bering va halol rizq bilan boqing, deyilgan. Bu so‘zlar, shubhasiz, otalikning ma’naviy mohiyatini ochib beradi.

Zamonaviy davrda otalik yangi mazmun kasb etmoqda: u nafaqat moddiy ta’minlovchi, balki farzandining ruhiy suyanchi va hayotdagi ilk ideali bo‘lishi lozim. O‘zbeklarda ota hurmatli, mehribon va adolatli inson sifatida e’zozlanadi. Shu bois, yoshlarni mas’uliyatli otalikka ma’naviy tayyorlash jamiyat taraqqiyotining muhim yo‘nalishidir.

Otalik faqat bolaga nom berish yoki moddiy ta’minot emas, balki uning qalbiga muhabbat, vijdan va insoniylik urug‘ini sochish hamdir. Haqiqiy ota bolasiga mehr va hayot sabog‘ini beradi. U farzandiga kuch emas, balki iroda, axloq va insoniy qadriyatlarini meros qoldiradi. Otaning hayoti — farzand uchun darslik degan ibora ham shu ma’noni anglatadi. Bola sog‘lom o‘sishi, ruhan pok bo‘lishi va oila muhiti mustahkamligi aynan ota mehri, so‘zi va amali orqali ta’minlanadi.

O‘zbek xalqi ma’naviyatida ota siymosi doimo ulug‘. Har bir xonadonda “ota” degan so‘z ehtirom va hurmat bilan tilga olinadi. Bu so‘z nafaqat shaxsga, balki butun oila ustuvorligiga, tartib-intizom va mas’uliyat ramziga aylangan. Xalq og‘zaki ijodida “Ota dunyoda nur”, “Ota bor uyda or bor”, “Otaning duosi — bolaning quyoshi” kabi iboralar bekor aytilmagan. Ular orqali xalq otalikni ma’naviy yorug‘lik, himoya va ibrat manbai sifatida ko‘rsatgan.

OTA MAS’ULIYATI

IBRATGA ASOSLANGAN TARBIYA YETUK JAMIYAT POYDEVORIDIR

Hadislardan birida bunday deyiladi: “Allohnning roziligi ota-onaning roziligidadir, Allohning g‘azabi ota-onaning g‘azabidadir”. Bu so‘zlar otalikning faqat dunyoviy emas, balki ma’naviy maqomini ham namoyon etadi.

Manbalarda ota farzand tarbiyasiga mas’ul ekani ta’kidlanishi bilan birga uning farzandda haqlari ham borligi keltiriladi. “Ota-onaning farzandi ustida qanaqa haqlari bor?” deb so‘ralganda, Imom Nasafiy bunday deydi: “Ota-onaning farzandlari ustida sakson haqi bor. Qirqtasi hayotligida, qirqtasi vafotidan keyin. Hayotligidagi qirq haqdan o‘ntasi badan bilan, o‘ntasi til bilan, o‘ntasi qalb bilan, o‘ntasi pul bilandir”.

Ajdodlarimiz ota siymosini qudrat, adolat va mehr timsoli sifatida tasvirlagan. Masalan, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” kabi eposlarda ota farzand uchun namuna, ruhiy quvvat va jasorat manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir xalqdagi qahramonlik ruhi ham, avvalo, ularning ibratini bilan shakllanadi.

O‘zbek adabiyotida ota obrazi faqat oilaviy yoki shaxsiy munosabat ramzi emas, balki millatning ma’naviy tayanchi, barqarorlik va burch ifodasi sifatida jonlanadi. Masalan, Alisher Navoiy asarlarida “ota” so‘zi “ustoz”, “peshvo”, “himoyachi” ma’nolari bilan uyg‘un holda keladi. Uning “Mahbub ul-qulub” asarida jamiyatdagi odil rahbar ham “ota” timsolida ifoda etilgan bo‘lib, bu orqali otalikning ma’naviy yuksakligi ta’kidlanadi.

O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov ijodida ota mehnatsevar, sokin, lekin ichki

dunyosi juda boy inson sifatida gavdalanadi. Shoir “Ota” she’rida bolalik xotirasi orqali jasorat va sukut ortidagi mehni jonli ifoda etadi:

Bolaligim — ota bag‘ri, Dunyo shuncha keng edi...
Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida esa otalik ruhiy suyanchi, ishonch va hayotdagi barqarorlik ramzi sifatida ta’riflanadi. Uning “Otang bor” she’rida: **Otang bor — dunyoda g‘aming yo‘q, Uning duosidan quvvat ol.**
O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ota va farzand munosabatlarining nozik va samimiy jihatlarini yoritadi. “Ota duosi” asarida asosiy e’tibor otaning farzand uchun qanchalik ezgu niyatda bo‘lishiga, moddiy

boylikdan ko‘ra farzandning sog‘lig‘i, baxti va tinchligi muhim ekaniga qaratilgan: **O‘g‘lim so‘ramasan sendan mol-dunyo, Uy ham qurib berma, mayli, alomat. Mayli, ko‘zlarimga bo‘lmagil ziyo, Yonimda yursang bas sog‘u salomat. Mayli, ko‘tarmagil meni yelkangda, Qalqon ham bo‘lmagil yog‘sa malomat. Bir kuni yostiqaq boshim tekkanida, Tepamda tursang bas sog‘u salomat.**
Bugungi kunda ham otalik qadriyatlarini tiklash, oilalarda otaning rolini kuchaytirish milliy ma’naviyatni mustahkamlash bilan barobar vazifadir. Chunki zamonaviy hayotda otalarning ish bilan bandligi yoki tarbiyadan chetda qolishi ayrim oilalarda bola va ota munosabatlarini zaiflashtirmoqda.

boylikdan ko‘ra farzandning sog‘lig‘i, baxti va tinchligi muhim ekaniga qaratilgan: **O‘g‘lim so‘ramasan sendan mol-dunyo, Uy ham qurib berma, mayli, alomat. Mayli, ko‘zlarimga bo‘lmagil ziyo, Yonimda yursang bas sog‘u salomat. Mayli, ko‘tarmagil meni yelkangda, Qalqon ham bo‘lmagil yog‘sa malomat. Bir kuni yostiqaq boshim tekkanida, Tepamda tursang bas sog‘u salomat.**
Bugungi kunda ham otalik qadriyatlarini tiklash, oilalarda otaning rolini kuchaytirish milliy ma’naviyatni mustahkamlash bilan barobar vazifadir. Chunki zamonaviy hayotda otalarning ish bilan bandligi yoki tarbiyadan chetda qolishi ayrim oilalarda bola va ota munosabatlarini zaiflashtirmoqda.

o‘z fikrida turish bilan birga boshqalarni tinglay bilishdir. Zamonaviy ota sheriklik va hurmat asosida munosabat qurib, farzandiga “Erkak — hurmatli, lekin mehribon bo‘lishi kerak”, degan namuna ko‘rsatadi. Ota-onaning hamjihatligi bolada xavfsizlik va ishonch tuyg‘usini shakllantiradi. Qiz bola onaga hurmat bilan munosabatda bo‘lgan otadan sevgi va hurmatni, o‘g‘il bola esa mas’uliyat va himoyani o‘rganadi. Bunday ota haqiqiy erkaklik madaniyatini ifoda etadi.

Ota mehribon bo‘lsa, farzand o‘zini xavfsiz, qadrlı va ishonchli his qiladi. Bu esa bolaning ichki hissiy barqarorligini ta’minlaydi, uni ruhiy jihatdan kuchli, mas’uliyatli va mustaqil shaxs etib tarbiyalaydi. Amerikalik psixolog Maykl Lambning tadqiqotlariga ko‘ra, otalarning mehri va e’tiborini his qilgan bolalarda ijtimoiy faollik, ishonch, mulokatga kirishish darajasi ancha yuqori bo‘ladi. Misol uchun, bola har kuni maktabdan qaytgach, otasi bilan birgalikda kichik ishlarni bajaradi: gul ekish, velosiped ta’mirlash yoki shunchaki suhbat qilish. Ota uning fikrlarini tinglaydi, xato qilganda baqirmay, tushuntiradi. Shu sababli bola sinfda faol, do‘stona va ishonchli o‘rtoq deya e’tirof etiladi. U boshqalarga yordam berishni yoqtiradi va mas’uliyatli vazifalarni bajarishdan qo‘rqmaydi. Bu holat mehribon otalik farzandning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuviga qay darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatishini yaqqol namoyon etadi.

Boshqa zamonaviy tadqiqotlar ham otaning farzand rivojiga ta’siri ruhiy va ijtimoiy jihatdan muhim ekanini ko‘rsatmoqda: farzandi bilan mulokatda bo‘lgan otalarning bolalari stressga chidamli, mas’uliyatli va faol bo‘ladi.

Demak, mas’uliyatli otalik oilaning poydevori, jamiyatning barqarorligi va millat ma’naviyatining ko‘zgusidir. U muhabbat bilan tarbiya qilish, adolat bilan boshqarish va ibrat bilan yetaklashni talab etadi. Shuning uchun har bir ota o‘z farzandi orqali millat kelajagini qurishini anglab, otalik mas’uliyatini yuksak darajada his etishi ayni muddaodir.

Husniddin NORQULOV, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent